

XALQARO HUQUQ NORMALARINI AMALGA OSHIRISHDA DIPLOMATIK PROTOKOLNING ROLI

Oqmamatov Behruz Hamroyevich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

1-bosqich talabasi


Email: khamroyevichbekhruz@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro huquq normalarining amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida diplomatik protokolning tutgan o'рни chuqur tahlil qilinadi. Xususan, protokol me'yorlari nafaqat marosimiy-etik xususiyatga ega ekani, balki xalqaro huquqiy tizimning funksional komponenti sifatida qaralayotgani asoslanadi. Diplomatiya protokol — bu xalqaro huquqning prinsiplari, jumladan suveren tenglik, davlatlararo o'zaro hurmat, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi tamoyillarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi huquqiy va tashkiliy vositadir. Maqolada protokol normalarining tarixiy evolyutsiyasi, ularning Vena konvensiyasidagi normativ asoslari va zamonaviy xalqaro diplomatik amaliyotdagi o'рни keng qamrovda yoritiladi. Shuningdek, raqamli diplomatiya sharoitida protokol me'yorlarining yangi talqinlari haqida ham mulohazalar bildiriladi. Ilmiy maqola xalqaro huquq va diplomatik faoliyat integratsiyasini chuqur tahlil qilish orqali diplomatik protokolni xalqaro huquqiy tartibotning ajralmas mexanizmi sifatida asoslashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro huquq, diplomatik protokol, Vena konvensiyasi, suveren tenglik, xalqaro munosabatlar, protokol me'yorlari, diplomatik etik, tashqi siyosat, diplomatik amaliyot, xalqaro huquqni amalga oshirish, diplomatik aloqalar.

Аннотация: В настоящей статье всесторонне анализируется роль дипломатического протокола в процессе реализации норм международного права. В частности, обосновано, что нормы протокола обладают не только церемониально-этической природой, но и рассматриваются как функциональный компонент международной правовой системы. Дипломатический протокол выступает в качестве правового и организационного инструмента, способствующего практическому воплощению принципов международного права, таких как суверенное равенство, взаимное уважение между государствами, мирное разрешение споров и др. В статье широко освещается историческая эволюция протокольных норм, их нормативные основы в Венской конвенции, а также современная практика международной дипломатии. Кроме того, рассматриваются новые трактовки протокольных норм в условиях цифровой дипломатии. Научная статья направлена на теоретическое обоснование дипломатического протокола как неотъемлемого механизма правового регулирования международных отношений.

Ключевые слова: Международное право, дипломатический протокол, Венская конвенция, суверенное равенство, международные отношения, нормы протокола,



дипломатический этикет, внешняя политика, дипломатическая практика, реализация норм международного права, дипломатические связи.

Abstract: *This article presents an in-depth analysis of the role of diplomatic protocol in the implementation of international legal norms. In particular, it substantiates that protocol norms are not merely ceremonial and ethical by nature, but also function as a structural component of the international legal system. Diplomatic protocol serves as a legal and organizational instrument that facilitates the practical realization of the principles of international law, such as sovereign equality, mutual respect among states, and the peaceful settlement of disputes. The article comprehensively explores the historical evolution of protocol norms, their normative basis in the Vienna Convention, and their role in contemporary diplomatic practice. It also offers insights into new interpretations of protocol norms in the context of digital diplomacy. The scientific paper aims to theoretically substantiate diplomatic protocol as an integral mechanism of international legal governance.*

Keywords: *International law, diplomatic protocol, Vienna Convention, sovereign equality, international relations, protocol norms, diplomatic etiquette, foreign policy, diplomatic practice, implementation of international law, diplomatic relations.*

Diplomatik protokol nafaqat tashkiliy-tartib masalalarini tartibga soluvchi hodisa sifatida, balki xalqaro huquqiy tamoyillarning amaliy ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. U xalqaro huquq me‘yorlarini siyosiy, institutsional va etik jihatdan muvozanatlashtiruvchi vositadir. Shu boisdan ham diplomatlarning harakatlari, davlat rahbarlarining tashriflari, xalqaro muzokaralar, konferensiyalar, tashkilotlar yig‘inlari va marosimlari kabi diplomatik faoliyatning barcha jihatlari protokol asosida belgilanadi va u orqali huquqiy normalar rasmiy ifodaga ega bo‘ladi²².

1961-yilgi Vena konvensiyasi asosida rasmiylashtirilgan diplomatik aloqalarning huquqiy me‘yorlari bugungi kun diplomatiyasida amaliy qo‘llaniladi. Mazkur konvensiyada elchixonalar, diplomatik xodimlar, ularning oila a‘zolari, diplomatik vakolatxonalarning mulki va faoliyati bo‘yicha diplomatik immunitetlar aniq belgilab berilgan bo‘lib, bu holat xalqaro huquq normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri hayotga tadbqiq etilishini kafolatlaydi²³. Shuni alohida qayd etish kerakki, diplomatik protokolning asosiy printsiplari – suveren tenglik, o‘zaro hurmat, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvdan tiyilish, diplomatik o‘dov va etik qoidalar asosida muloqot – bularning barchasi xalqaro huquq asoslarini tashkil etuvchi tamoyillar bilan uyg‘unlikda harakat qiladi. Ya‘ni protokol huquqni amalda mujassamlashtiradi. Bu jihatdan BMT doirasida ishlab chiqilgan marosimiy va protokolik qoidalar ayni xalqaro huquqning kodifikatsiyalashgan shakllari hisoblanadi. Misol uchun, BMTga yangi davlat a‘zolidigini qabul qilish, elchining

²² Кузьмин Э.Л. Протокол и этикет дипломатического и делового общения. – М.: МГУ, 2005. – С. 29–31.; Ксенофонтов А.В. Дипломатический протокол и особенности его реализации в международном праве // Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. – № 3. – 2006. – С. 83–91.

²³ Венская конвенция о дипломатических сношениях 1961 г. – М.: Международные отношения, 2003. – С. 2–4.

akkreditatsiyasi, bayroq ko'tarilishi, doimiy vakilga ishonch yorlig'i topshirish marosimlari – bularning barchasi diplomatik protokol vositasida amalga oshiriladi va o'z mohiyatida huquqiy jarayondir²⁴.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, xalqaro munosabatlar doimiy dinamikada bo'lib, global xavfsizlik tizimidagi o'zgarishlar diplomatik protokolning normativ kuchini oshirib bormoqda. Xususan, ikkinchi jahon urushi yillarida SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya o'rtasidagi protokol asosidagi siyosiy va harbiy ittifoq bu institutning mojaroli sharoitdagi barqarorlik kafolati sifatidagi rolini ko'rsatdi²⁵. Bugungi real vaziyatda – ya'ni NATOning kengayishi, xalqaro migratsion bosimlar, diniy ekstremizm, yadroviy xavf kabi global xavf-xatarlar fonida diplomatik protokol o'zining faqat tashriflar, marosimlar uchun emas, balki xalqaro huquqning sanksiyaviy, tartibga soluvchi va stabilizatorlik vazifalarini bajaruvchi vosita ekanligini isbotlamoqda²⁶.

Diplomatik protokolning xalqaro-huquqiy ahamiyatini kuchaytiruvchi yana bir omil – bu immunitetlar va privilegiyalar institutidir. Ular, bir tomondan, diplomatik shaxslarning suveren faoliyatini kafolatlaydi, ikkinchi tomondan esa, xalqaro huquq normalariga rioya qilishning real asosini shakllantiradi. Xususan, diplomatik vakillar shaxsiy daxlsizlikka, soliqlardan ozodlikka, sud yurisdiksiyasidan muaflikka ega bo'lishi – bu xalqaro huquq amaliyotida diplomatik protokol orqali amalga oshiriladigan me'yorlardir²⁷.

Zamonaviy xalqaro aloqalarda muhim rol o'ynaydigan yana bir yo'nalish bu – konferensial diplomatiyadir. Turli formatdagi xalqaro anjumanlar, sammitlar, forumlar – ularning barchasi qatnashuvchi davlatlarning o'zaro protokollik maqomini aniqlovchi vosita sifatida diplomatik protokoldan foydalanadi. Delegatsiyalarning joylashuvi, muhokama tartibi, ovoz berish va bayonotlar qilish qoidalari – bularning barchasi xalqaro huquq normativlarini muvozanatda ushlab turadi²⁸. Shu bois, xalqaro huquqning hayotiyiligi va davlatlararo munosabatlardagi legitimlikni ta'minlovchi har qanday institutlar tizimi – baribir diplomatik protokolga tayanadi. U holda protokol – bu huquqning tashqi ko'rinishi emas, balki uning ichki harakatlantiruvchi omili sifatida qaraladi.

Xalqaro huquq — bu davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy tizim bo'lib, uning samarali amalga oshirilishida tashqi siyosiy amaliyotning maxsus komponentlari, xususan, diplomatik protokol alohida ahamiyat kasb etadi. Diplomatik protokol, mazmunan va funksional jihatdan, xalqaro huquqning normativ asoslarini amaliy hayotda mujassamlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. U milliy manfaatlar ifodasi bo'lgan tashqi siyosiy faoliyatni xalqaro me'yorlar, qadriyatlar va axloqiy-etik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi murakkab

²⁴ Капустин А.Я. Юридическая культура как фактор политической глобализации // Вестник ЮНЕСКО. – № 2. – М., 1999. – С. 68–70.

²⁵ Капто А.С. Дипломатия нового международного переустройства. 1939–1945 гг. // Наука. Культура. Общество. – № 1. – 2005. – С. 69.

²⁶ Фельтхэм Р.Дж. Настольная книга дипломата. – Минск, 2002. – С. 105–110.

²⁷ Ксенофонов А.В. Дипломатический протокол и особенности его реализации в международном праве // Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. – № 3. – 2006. – С. 83–91.

²⁸ Селянинов О.П. Дипломатические отношения государств: принципы, формы и методы. – М.: МГИМО (Университет), 2004. – С. 142–146.

kommunikativ tizimni tashkil etadi. Shu sababli, diplomatik protokol xalqaro huquqning amaliy-madaniy ifodasidir, deyish aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Diplomatik protokol o'zining shakllanishida tarixiy-sivilizatsion asosga ega bo'lib, u ko'p asrlik davlatlararo muloqot, diplomatik an'analar va marosimlar tajribasi asosida taraqqiy etgan. U, bir tomondan, xalqaro huquqning ixtiyoriy odat (customary law) sifatidagi normalari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, u milliy huquqiy tizimlar bilan muvofiqlashtirilgan tashqi siyosat amaliyoti shaklida vujudga kelgan. Klasik huquqshunos olim I.I. Lukashuk ta'kidlaganidek, "xalqaro huquqning amal qilishi doimiy, barqaror va takrorlanadigan diplomatik odatlarda o'z ifodasini topadi"²⁹.

Diplomatik protokol o'zining mohiyatiga ko'ra ikki yo'nalishda faoliyat ko'rsatadi: normativ va etik. Uning normativ qatlami xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, 1961-yilgi Vena konvensiyasi asosida shakllangan bo'lsa, etik-axloqiy qatlami esa xalqaro hurmat, davlatlar suverenitetini tan olish va ularni ramziy qadriyatlari (bayroq, gerb, madhiya) orqali tan olish tamoyillariga asoslanadi³⁰. Ayni paytda, protokolning amaliy jihatlari — masalan, rasmiy tashriflar, diplomatik vakillarning kutib olinishi, vakolatnomalarning topshirilishi, diplomatik korpusning joylashuvi va marosimlarda ishtirok etishi — xalqaro huquqning prinsiplarini real siyosiy muhitda joriy etish vositasidir. Bunda e'tiborli jihat shundaki, diplomatik protokol hech qachon faqatgina tashkiliy-ma'muriy qoidalar majmui sifatida ko'rilmaligi lozim. Bu tizim, o'z tabiatiga ko'ra, huquqiy legitimatsiyaga ega bo'lib, u davlatlararo munosabatlarda tenglik, suverenitetga hurmat, aralashmaslik va xalqaro vijdon tamoyillarining joriy etilishini ta'minlaydi. Shu o'rinda professor A.S. Kaptoning ta'kidlashicha, "protokol — bu nafaqat xalqaro-huquqiy, balki axloqiy tushunchadir. U davlat vakillari tomonidan turli diplomatik marosimlar tashkil etilishini tartibga soluvchi tashkiliy va axloqiy normalar yig'indisidir"³¹.

Xalqaro tashkilotlar, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), diplomatik protokolning institutsional asoslarini takomillashtirishda alohida o'rin tutadi. BMTning Protokol xizmati nafaqat yangi a'zolarining qabul qilinishi va ularning vakolatlarining tasdiqlanishi jarayonini yuritadi, balki ushbu jarayon orqali xalqaro huquq normalarining amalda qo'llanishini ta'minlaydi. Xususan, yangi a'zoning bayrog'ini BMT shtab-kvartirasi oldida ko'tarish marosimi davlatning xalqaro huquq sub'ekti sifatida tan olinganligini anglatadi³². Yana bir muhim jihat shuki, diplomatik protokol davlatlararo muloqotdagi norasmiy siyosiy signallarni yetkazishda ham vositachilik qiladi. Marosimlardagi ishtirok etish darajasi, delegatsiyalarning kutib olinishi yoki ularning rasmiy tartibda joylashtirilishi kabi omillar, o'z navbatida, xalqaro huquqiy pozitsiyalarning diplomatik yo'l bilan ifodalanishini bildiradi. Shu ma'noda protokol —

²⁹ Лукашук И.И. (2005). Международное право: Общая часть. — Москва: Вольтерс Клувер. — 234–238-бетлар.

³⁰ Венская конвенция о дипломатических сношениях. (1961). — Статья 16.

³¹ Капто А.С. (2010). Протокол и дипломатия: этика международного общения. — Москва: Международные отношения. — 112–118-бетлар.

³² United Nations Protocol and Liaison Service. (2016). Manual of Protocol Practice: UN Protocol and Liaison Service. — UN Secretariat. <https://protocol.un.org>

bu siyosiy jarayonlarning ramziy ifodasi bo'lib, xalqaro huquqning axloqiy-estetik va funksional ko'rinishidir³³.

Zamonaviy xalqaro vaziyat shiddatli o'zgaruvchanlikni aks ettirar ekan, diplomatik protokolning barqarorligi va an'anaviyligiga tayanilgan xalqaro huquqiy tartibotni saqlab qolish nihoyatda muhimdir. Diplomatiya protokol, bu ma'noda, "barqarorlashtiruvchi mexanizm" rolini o'ynaydi, u global diplomatiya madaniyatining me'yoriy bazasi bo'lib xizmat qiladi. Diplomatiya protokol xalqaro huquqning amaliyotdagi eng muhim vositalaridan biri bo'lib, davlatlar o'rtasida rasmiy aloqalarni tartibga soluvchi, xalqaro huquqiy normalarning izchil va samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi mexanizmdir. Protokol nafaqat tashqi siyosat muhitida muomala madaniyatining ifodasi, balki xalqaro diplomatik munosabatlarda huquqiy me'yorlarning tan olinishi va bajarilishiga kafolatdir.

Diplomatik protokolning asosiy vazifasi – xalqaro huquq subyektlari, ya'ni davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni tartibga solish orqali xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini – suverenitet, tenglik, aralashmaslik, kelishuvga asoslanganlik kabi tamoyillarni hayotga tatbiq etishdir. Ayniqsa, rasmiy tashriflar, xalqaro muzokaralar, sammitlar yoki shartnomalarni imzolash marosimlarida protokol talablari xalqaro normalarni real amaliyotda shakllantiradi.

Masalan, protokol doirasida amal qilinadigan tartiblar (delegatsiya rahbarining qabul qilinishi, joylashtirish tartibi, bayroq va gerbdan foydalanish qoidalari) davlatlar o'rtasidagi siyosiy va huquqiy maqomlarni aniq aks ettiradi. Bu esa taraflar o'rtasidagi tenglik va o'zaro hurmatni ta'minlab, xalqaro normalarning aniq ifodasi sifatida xizmat qiladi³⁴.

Xalqaro diplomatiya tarixida BMTning rasmiy protokol normalari eng universal tarzda tatbiq etilgan qoidalar tizimi sifatida e'tirof etiladi. Ular orqali a'zo davlatlar o'rtasida nizolarni bartaraf etish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, huquqiy munosabatlar erkinligiga xizmat qiluvchi vosita shakllanadi. Bu borada AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya va Xitoy kabi davlatlarning diplomatik protokol amaliyoti – xalqaro huquqiy qoidalarni amal qilishda ilg'or model hisoblanadi³⁵. Diplomatiya protokolning xalqaro normalar ijrosidagi yana bir muhim jihati – u xalqaro shartnomalar va konvensiyalarning rasmiylashtirilish jarayonida aniqlik va aniqlovchanlikni ta'minlaydi. Aynan protokol doirasidagi tafsilotlar kelishuvning legitimligini kafolatlovchi huquqiy atributlardir. Bunga Vena konvensiyasi (1961 y.) misol bo'la oladi. Ushbu konvensiyada protokolning diplomatlar maqomini aniqlashdagi roli, ularga beriladigan immunitet va imtiyozlar xalqaro huquq me'yorlariga tayangan holda hujjatlashtirilgan³⁶.

Zamonaviy dunyoda raqamli diplomatiya paydo bo'lishi bilan protokol tartiblarida yangilanishlar yuz berdi. Endi protokol faqatgina an'anaviy emas, balki virtual aloqalar doirasida ham xalqaro huquqni amalda bajarishda muhim vositaga aylandi. Masalan,

³³ Zori S.V. (2018). Diplomatiya protokol Rossiyskoy Federatsii: traditsii i sovremennost'. – Sankt-Peterburg: Izd-vo SPbGU. – 103–110-betlar.

³⁴ Abdullayev, J. (2024). Modern History of Diplomatic Relations of Central Asian States. Oriental Studies, 1(2), 17–28.

³⁵ Bjola, C., & Holmes, M. (2015). Digital Diplomacy: Theory and Practice. Routledge. – 34–37-betlar.

³⁶ Vena konvensiyasi (1961). Diplomatiya munosabatlari to'g'risida. BMT rasmiy hujjatlari to'plami.

xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi videokonferensiyalar, onlayn uchrashuvlar va elektron hujjat almashinuvi, ular bilan bog'liq protokol normalarining qayta ishlab chiqilishini taqozo etmoqda³⁷. Shuningdek, diplomatik protokol yirik xalqaro tadbirlarda davlat imijining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Uning rasmiylik, tantanavorlik va aniqlik tamoyillari orqali davlatlar o'z suveren maqomini, siyosiy mustaqilligini va xalqaro tan olinishini mustahkamlab boradilar.

Diplomatik protokol xalqaro huquqning tashkiliy-amaliy jihatdan muhim bo'g'ini bo'lib, u davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy shakllanishi va suveren tenglik asosida olib borilishini ta'minlaydi. Xalqaro huquq, keng ma'noda, huquqiy munosabatlarning chet el elementi ishtirokidagi shakli bo'lib, uning manbalari – xalqaro shartnomalar, odat va umumiy prinsiplar – diplomatik vositalar orqali real hayotda o'z ifodasini topadi³⁸. Diplomatik protokol esa ana shu normativ asoslarning amalda joriy qilinishiga xizmat qiladigan siyosiy-huquqiy mexanizmdir. Tarixiy nuqtai nazardan, diplomatik protokol xalqaro huquq bilan baravar shakllanib, turli sivilizatsiyalar tajribasida ommalashgan: Mesopotamiya va Misrda topilgan ilk bitimlar, masalan, Lagaş va Umma shahar-davlatlari o'rtasidagi kelishuv³⁹, bu amaliyotning qadimiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Konfutsiy (Китай) va Manu qonunlari (Индия) asosida shakllangan diplomatik aloqalar doirasida mehmonlar xavfsizligini ta'minlovchi me'yorlar mavjud bo'lib, bu qadimiy diplomatiyaning protokol tusiga ega bo'lganini bildiradi⁴⁰.

Diplomatik protokol zahirida xalqaro tenglik, ehtirom, rasmiylik va do'stona aloqalar yotadi. Shu bois, protokol, aslida, davlatlararo o'zaro hurmatni shakllantiruvchi huquqiy "ko'rinish"dir. U suverenitet tamoyilini tantanavorlik va rasmiy marosimlar orqali mustahkamlaydi: masalan, bayroq, madhiya, elchilarni qabul qilish tartibi. Aynan shu jarayonlarda xalqaro huquq normalari o'zining amaliy mazmunini oladi⁴¹. BMT doirasidagi diplomatik protokolga oid normalar esa eng universal bo'lib, ularning muqarrarligi Venadagi 1961-yilgi Konvensiyada mustahkamlangan. Bu konvensiya nafaqat diplomatik aloqalarning rasmiy asoslarini belgilaydi, balki protokol doirasida xalqaro huquqni "jazmanlik" asosida emas, balki tenglik va o'zaro rozilik asosida amalga oshirishni ta'minlaydi⁴².

Zamonaviy bosqichda diplomatik protokol, ayniqsa, global xavfsizlik, migratsiya, raqamli diplomatiya kabi murakkab masalalarning hal etilishida muhim vosita sifatida ko'zga tashlanmoqda. Endilikda diplomatik protokol an'anaviy tashriflar bilan cheklanmay, balki onlayn uchrashuvlar, masofaviy delegatsiyalar, virtual hujjat almashinuvi singari yo'nalishlarni ham o'z ichiga olmoqda⁴³. Bu esa xalqaro huquqni

³⁷ Manor, I. (2020). The Digitalization of Diplomacy: Between Trends and Tools. The Hague Journal of Diplomacy, 15(2), 85–102.

³⁸ Игнатенко, Г.В. (1995). Международное право. Москва: Изд-во Юрист. – 22-с.

³⁹ Дмитриев, А.И. (2013). История международного права. Москва: Норма. – 71–72-с.

⁴⁰ Капустин, А.А. (2007). Международное право и цивилизации. М.: Юридическая литература. – 893-с.

⁴¹ Лукашук, И.И. (2005). Международное право. Учебник. – Москва: Волтерс Клувер. – 137-с; 313-с.

⁴² Ушаков, Н.А. (2000). Курс международного права. М.: Международные отношения. – 7-с; 25–26-с.

⁴³ Manor, I. (2020). The Digitalization of Diplomacy: Between Trends and Tools. The Hague Journal of Diplomacy, 15(2), 85–102.

yangi sharoitlarda amaliyotga tadbqiq etishdagi moslashuvchanlikni anglatadi. Shuningdek, protokol ko'p hollarda xalqaro shartnomalarning legitimligini aniqlovchi vosita hamdir. Masalan, muzokaralar davomida joylashtirish tartibi, tartibiy ketma-ketlik va protokol etiketi diplomatik muvozanatni aks ettiradi.

Shuning uchun, har qanday protokol buzilishi – diplomatik nizo yoki xalqaro huquqiy muammoga sabab bo'lishi mumkin⁴⁴. Protokolning siyosiy mazmuni ham mavjud: u davlatning tashqi siyosiy pozitsiyasini ifodalovchi, suverenitet va tashqi mustaqillikni tasdiqlovchi uslubiy vositadir. Ayniqsa, diplomatik marosimlarda birinchi bo'lib so'zga chiqish, faxriy qarshi olish, tantanavor qabul – bularning barchasi xalqaro huquq me'yorlarini amalda mujassamlashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, diplomatik protokol xalqaro huquq normalarining hayotga tadbqiq etilishida nafaqat vosita, balki natijaning sifatiga ta'sir qiluvchi muhim institutdir. U orqali xalqaro huquq me'yorlari, suveren tenglik, rasmiy diplomatik maqom, va madaniy protokollar o'z kuchini namoyon qiladi. Shu bois diplomatik protokol xalqaro huquq amaliyotining "ko'rinadigan qismi" deb e'tirof etilishi o'rinlidir⁴⁵.

Zamonaviy xalqaro huquqiy munosabatlar tizimi o'zining shakllanishi, taraqqiyoti va funksional samaradorligida, avvalo, universal prinsiplar, imperativ normalar va huquqiy institutlarning o'zaro uyg'unlashgan faoliyati orqali o'z ta'sir kuchini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, xalqaro huquq me'yorlarining amalda to'laqonli va tizimli joriy etilishi masalasi, ularning shaklan kodifikatsiyalanganligi emas, balki amaliy kommunikatsion muhitda qanday tarzda amalga oshirilayotganiga bevosita bog'liqdir. Aynan shu holatda diplomatik protokol instituti o'zining markaziy rolini namoyon etadi. Diplomatik protokol – bu faqat tashqi marosimiy doira emas, balki davlatlararo o'zaro munosabatlarni xalqaro huquq mezonlari asosida tartibga soluvchi funksional mexanizmdir. U suveren tenglik, vakolat doirasi, xalqaro muloqotdagi xolislik va muvozanat tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarixiy va sistematik jihatdan qaralganda, diplomatik protokol xalqaro huquqning genetik negizlariga chuqur singib ketgan institutdir. U xalqaro huquqning dastlabki shakllanish bosqichlaridan boshlab – qadimgi Mesopotamiya diplomatik aloqalari, Rim-Vizantiya diplomatik an'analari, G'arbiy Yevropa saroy diplomatiyasi orqali o'zining bugungi universal formatiga yetib kelgan. Shu bilan birga, har bir tarixiy bosqichda u xalqaro huquqning real vaqtli "operatsion algoritmi" sifatida harakat qilgan: rasmiy aloqa kanallari, elchilar maqomini belgilash, xalqaro shartnomalarning rasmiylashtirish tartibi, diplomatik immunitetlar – bularning barchasi xalqaro huquq me'yorlarini joriy etuvchi protokol normalarining quyi darajadagi vositalari sifatida xizmat qilgan.

Xalqaro huquq normasi – bu huquqiy-abstrakt me'yor bo'lsa, diplomatik protokol esa uning hayotiy-madaniy konversiyasi, ya'ni uni mavjud siyosiy-madaniy kontekstda voqelantiruvchi vositadir. Shunday ekan, xalqaro huquq normalari faqat shartnomalarda emas, balki ularni amalga oshirishdagi tashkiliy va etik normalarda o'zining real

⁴⁴ Колосов, Ю.М., Кузнецов, В.И. (1999). Международное право. Учебник. М.: Юрист. – 11–12-с.

⁴⁵ Молчанов, Н.Н. (1984). История дипломатического протокола. Москва: Дипломатическая академия. – 178-с.

funksional mazmunini topadi. Diplomatiya protokol bu jihatdan huquqiy diplomatiyaning ijtimoiy-madaniy ifodasidir: u muloqotni rasmiylashtiradi, ishonch muhitini mustahkamlaydi, nizolarni oldini oladi va eng muhimi – xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi tenglikni marosimiy darajada kafolatlaydi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Islom Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalarning faoliyati davomida diplomatiya protokolning aniq va qat'iy normalari xalqaro huquqning universal amal qilishini ta'minlovchi zaruriy shartlardan biri sifatida shakllanmoqda. Masalan, Venetsiya konvensiyasi (1961) diplomatiya aloqalarni huquqiy jihatdan mustahkamlagan bo'lsa, uning protokol aspektlari (ya'ni, elchilarning maqomi, verifikatsion tartiblar, diplomatiya immunitetlar va protokollar) ushbu konvensiyada belgilangan normativ printsiplarning bevosita hayotga tatbiq etilish mexanizmidir. Diplomatiya protokolning inkor etilishi esa ko'p hollarda xalqaro huquqiy mojarolarga sabab bo'lishi mumkin – bu esa xalqaro huquqni faqat deklarativ emas, balki dinamik kategoriyalardan biri sifatida baholashga majbur etadi.

Shuningdek, zamonaviy texnologik muhitda, ya'ni raqamli diplomatiya va gibriddiplomatiya formatlar davrida diplomatiya protokol xalqaro huquqni amalga oshirishda yangi, transformativ formatda o'z aksini topmoqda. Masofaviy muloqotlar, onlayn sammitlar, virtual elchixona faoliyati, elektron akkreditatsiyalar – bularning barchasi protokol normalarining zamonaviy talqini orqali xalqaro huquqni texnologik sharoitda real qo'llashni anglatadi. Bu esa xalqaro huquqning mutlaq statik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitga mos ravishda yangilanib boruvchi, o'zgaruvchan tizim ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro huquq normalarining to'laqonli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan madaniy va tashkiliy muhit aynan diplomatiya protokol vositasida ta'minlanadi. Protokol – bu xalqaro huquqiy marosim emas, balki xalqaro huquqning ijtimoiy va siyosiy hayotda ifodalanish shaklidir. U o'z mohiyatida davlatlararo munosabatlarning muvozanatli, qonuniy va do'stona yo'nalishda rivojlanishiga xizmat qiluvchi mexanizmdir. Shu sababli diplomatiya protokolni xalqaro huquqni amalga oshirishda ikkilamchi omil emas, balki normativ kommunikatsiyaning zamonaviy vositasi sifatida qayta baholash va uning ilmiy-huquqiy maqomini mustahkamlash global xalqaro huquq amaliyotining ustuvor strategik vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

